



O'zbekiston Respublikasi  
Suv xo'jaligi vazirligi

Supported by the SDC



Schweizerische Eidgenossenschaft  
Confédération suisse  
Confederazione Svizzera  
Confederaziun svizra


Swiss Agency for Development  
and Cooperation SDC



Smart solution systems  
MChJ

**"O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi" (II-bosqich)**

# **Suv sarfini o'lchashda raqamli texnologiyalardan foydalanish**



MGG/KL-DCB rusumli elektromagnit  
suv sarfini o'lchash vositasidan  
foydalanish misolida

Toshkent – 2022

## **Suv sarfini o'lhashda raqamli texnologiyalardan foydalanish**

(MGG/KL-DCB rusumli elektromagnit suv sarfini o'lhash vositasi misolida)  
Fozilov I. I., Mamatov S. A., Axronqulov J. / Toshkent, 2022 - 30 b.

Qo'llanmada cheklangan suv resurslari sharoitida mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish uchun MGG/KL-DCB rusumli elektromagnit suv sarfini o'lhash vositasidan foydalanish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar bayon qilingan.

Qo'llanma Shveysariya Kofederatsiyasi hukumatining beg'araz moliyalashtirilishi asosida Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish" milliy loyihasi (II-bosqich) doirasida tayyorlangan.

Qo'llanma suv xo'jaligi sohasi mutaxassislari, soha yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va muammo bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Nashrga tayyorlovchilar:	Fozilov I. I. Mamatov S. A. Axronkulov J.	Smart solution systems MChJ rahbari O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi mutaxassisi Smart solution systems MChJ mutaxassisi
Taqrizchi:	Amanov B.T.	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti dotsenti

Qo'llanmada keltirilgan materiallar mualliflarning fikri bo'lib, u Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi rasmiy nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Materiallardan foydalanganda qo'llanmaga havola qilinishi shart.

Qo'llanma bo'yicha takliflarni quyidagi manzilga yuborilsin:  
100187, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Qoraув 4 mavzesi, 11-uy  
Tel.: +998 55-503-88-37, E-mail: info@nwrmp.uz

Qo'llanma tijorat maqsadlarida tarqatilmaydi.

© O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi, 2022 yil

## Mundarija

<b>So'z boshi .....</b>	<b>4</b>
I. Umumiy ma'lumotlar.....	5
II. O'ziga xos jihatlari .....	6
III. Asosiy texnik ko'rastkichlari .....	6
IV. Ishlash prinsipi.....	7
V. Tarkibiy tuzilishi.....	8
VI. Asbobni yig'ish va ishga tushirish.....	8
6.1. Elektron hisoblagich.....	8
6.2. Tezlik sensorli datchik .....	10
VII. Menyu, klaviatura va parametrlarni sozlash .....	11
7.1. Suv oqimi tezligini o'Ichagich asbob tugmalarining tavsiflari .....	11
7.2. Foydalanish menyusi va parametrlar to'g'risida ma'lumotlar .....	14
7.3. Muhandislik rejimi menyusi .....	16
VIII. Uskunadan foydalanish.....	19
8.1. Suv oqimi tezligini o'Ichash .....	19
8.2. Suv oqimi suv sarfini (miqdorini) o'Ichash .....	19
8.3. Suv oqimi tezligini o'Ichashga qo'yiladigan talablar .....	22
8.4. Ishlatish rejimlari .....	23
8.5. Nol kalibrlash (avtomatik tarzda nolga sozlash) .....	24
8.6. Avval saqlangan ma'lumotlarni qayd etish va olish .....	25
IX. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha eslatma .....	26
X. Nosozliklarni bartaraf etish.....	27
XI. Uskunaning tarkibiga kiruvchi elementlar to'plami.....	28

## **SO'Z BOSHI**

Suv oqimi tezligi va sarfini o'lhash uchun mo'ljallangan MGG/KL-DCB rusumli elktromagnit qurilmalar maxsus ishlab chiqilgan datchiklar va signallarni yuqori sezgirlikda qayta ishlash tizimi bilan jihozlangan.

Energiyani kam talab qiluvchi va signallarni raqamli tarzda to'liq qayta ishlovchi 16 bitli mikroprotsessor yuqori aniqlikdagi barqaror ish rejimi va tashqi ta'sirlardan ishonchli himoyalanuvchi tizim bo'lishini ta'minlaydi.

Uning tarkibiga oqim tezligini avtomatik tarzda ikki tomonlama o'lhash, ko'p parametrli display, o'z-o'zini tashxislash signalizatsiyasi, RS485 (ixtiyoriy) hamda ma'lumotlarni saqlash funksiyalari kiradi.

MGG/KL-DCB qurilmasi suv oqimi tezligi va sarfini o'lhash uchun mo'ljallangan elektromagnit suv o'lchagichlar turkumiga mansub. Bu turkum tarkibiga I-model rusumli tezlik o'lchagich; oniy oqim va akkumulyativ oqimga integratsiya qilingan II-model rusumli matematik model; suv oqimi chuqurligi, tezligi va miqdorini aqlii tarzda o'lchchaydigan qurilmasi bilan jihozlangan yuqori konfiguratsiyali III model datchigi kiradi.

## **MGG/KL-DCB rusumli elektromagnit tezlik o'chagich**

### **I. Umumiylumotlar**

MGG/KL-DCB rusumli elektromagnit qurilmalar suv oqimi tezligi va sarfini o'chash uchun mo'ljallangan maxsus portativ asboblardir.

Ulardan qishloq xo'jaligi sug'orish tarmoqlarida suv yetkazib berishda, gidrologik monitoringda, daryolar suv oqimlari monitoringlarini olib borishda, shaharlarni ochiq suv havzalaridan suv bilan ta'minlash jarayonida suv oqimlari tezligini aniqlash (o'chash) uchun foydalaniladi.

Qurilma kam energiya sarflash xususiyatiga ega. Unda qo'llanilgan signallarni raqamli tarzda to'liq qayta ishlab berish texnologiyasi suv o'chash ishlarini barqaror va yuqori darajada ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Suv tezligini o'chagich uskunasining o'chash diapazoni keng va yuqori aniqlikka ega. Undan qishloq xo'jaligi sug'ooriladigan maydonlariga suv yetkazib berish, gidrologik monitoringlar va suv resurslarini muhofaza qilish sohalarida keng foydalaniladi.



1-rasm. MGG/KL-DCB ko'chma elektromagnit tezlik o'chagich

## **II. O'ziga xos xususiyatlari**

MGG/KL-DCB rusumli elktromagnit qurilmalar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- ✓ qo'zg'aladigan qismlari va chulg'amlari yo'q.
- ✓ suv oqimi tiqilmaydi;
- ✓ alohida texnik xizmat ko'rsatilishini, qo'shimcha sozlash va sinovdan o'tkazishni talab qilmaydi;
- ✓ mikro quvvatli tizim yangi almashtirilgan batareya bilan 80 soatgacha ishlashi mumkin ( II model, suv sathi datchigi);
- ✓ suyuq kristalli va ostidan yoritiladigan katta displayli (LCD) ekran o'lhash ma'lumotlarini quyosh yorug'ida ham, qechasida ham aniq namoyish etadi;
- ✓ uskuna interfeysi suv oqimining tezligi, sarfi ( II model), yakuniy yig'indi natijalarni ( II model), suv oqimi sathini ( II model), suv oqimi yo'nalishini, mavjud elektr quvvati miqdorini, qo'ng'iroqlar ma'lumotlarini, ish vaqtini, ishning borishi holatini namoyish etadi;
- ✓ uskuna foydalanish uchun qulay, foydalanuvchi suv oqimining tezligini aniqlash ishlarini bajarish uchun o'z hohishiga ko'ra shtanga, sim arqon yoki yelkan kabi yordamchi vositalardan birini qo'llashi mumkin.
- ✓ uskunaning tok manbai avtomatik tarzda o'chish xususiyatiga ega.

## **III. Asosiy texnik ko'rsatkichlar**

- ✓ suv oqimining tezligi 0,005 m/s dan 10 m/s gacha bo'lgan oraliqda o'lchanadi. Bunda o'lhash oraliqlari 5 mm/s ga teng.
- ✓ o'lhash aniqligi:  $\pm 1,0\% (+0,005\text{ m/s})$ ;
- ✓ ma'lumotlarni yig'ish vaqtini ikki xil
  - 10 ~ 900 sekundlar oralig'i uchun avtomatik tarzda yoki
  - istalgan vaqt oralig'i uchun qo'lda sozlash imkoniyati mavjud;

- ✓ foydalilaniladigan elektr quvvati: 1,5 volt kuchlanishli\*5 dona oddiy batareya;
- ✓ display: ortdan yorituvchili katta LCD ekran suv sarfi (II-Model), ma'lumotlar yig'indisi (II-Model), suv sathi (II-Model), suv oqimi yo'nalishi, mavjud elektr quvvati miqdori, qo'ng'iroqlar ma'lumotlari, ish vaqt va ishning borishi holatini ekranda ko'rsatadi;
- ✓ interfeys: RS 485 (turli opsiyalarda);
- ✓ elektr o'tkazuvchanlik: > 20 mSm/sm;
- ✓ ishlash harorati o'rtacha:  $0^{\circ}\text{C} \sim 60^{\circ}\text{C}$  oraliqda;
- ✓ tashqi muhit harorati:  $-10^{\circ}\text{C}$  dan  $50^{\circ}\text{C}$  gacha;
- ✓ display raqamlari: verguldan keyin 3 ta raqam (X.XXX);
- ✓ display o'lchami:  $204 \times 100 \times 35$  mm;
- ✓ sensorli datchik o'lchami:  $\varnothing 32 \times 460$  mm;
- ✓ gidrometrik shtanga: har birining uzunligi 0,5 metrdan bo'lgan, birlari bilan ulanuvchi 12 ta bo'lakdan iborat (jami uzunligi 6 metr).

#### **IV. Ishlash prinsipi**

MGG/KL-DCB rusumli elektromagnit suv oqimi tezligini o'lchagich elektromagnit induksiyaga oid Faradey qonuni asosida ishlaydi.

O'zgaruvchan magnit maydonidagi magnit maydoni chiziqlariga perpendikulyar yo'nalishda oqib o'tuvchi suyuqlik magnit kuch chiziqlarini kesib o'tib o'lhash trubkasi bo'ylab induktiv elektr yurituvchi kuchni yuzaga keltiradi.

Zondlash trubkasining o'qi va magnit kuch chiziqlarigan perpendikulyar bo'lgan trubka devoriga bir juft elektrod o'rnatiladi.

Elektrodlar induktiv elektr yurituvchi kuch ta'siriga tushadilar. Induktiv elektr yurituvchi kuch odatda suv sarfiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Kelib tushgan suyuqlik oqimi detektor tomonidan harakat qildiriladi.

Induktiv elektr yurituvchi kuchning signali standart ( $0 \div 10$ ) mA, ( $4 \div 20$ ) mA doimiy tok oqimi signaliga yoki o'zgartirgich kuchlanishi

orqali oqim signaliga to'g'ri proporsional bo'lgan ( $0 \div 5$ ) kGs chastotali chiqish signaliga aylantiriladi.

Shu tariqa o'lhash amalga oshiriladi.

### Suyuqlik oqimi tezligining tenglamasi

$$E = K \cdot B \cdot D \cdot \bar{V}$$

E - induktiv potensial (V);

K - magnitlanishning induktiv elektr potensiali,

$\bar{V}$  - suyuqlikning elektrod yuzasini kesib o'tgan diapazondagi o'rtacha tezligi;

B - magnit induksiyasi jadalligi;

D – elektr induktivligi potensiallari orasidagi masofa.

## V. Tarkibiy tuzilishi

Asbob tarkiban uch qismdan iborat: (1) elektromagnit tezlik sensori, (2) elektron hisoblagich va (3) gidrometrik shtanga yoki osma sim.

## VI. Asbobni yig'ish va ishga tushirish

### 6.1 Elektron hisoblagich

#### 6.1.1 Displey porti

Displey portiga tezlikni o'lchovchi elektromagnit sensorli datchik ulanadi (2-rasm).

Datchik chiqish liniyasining oxirida ularash vilkasi mavjud.


Ana shu vilkani displey portiga ulanadi va vintlarini burab tortib qo'yiladi.



2-rasm. Sensorli datchik shnuri ulanadigan displey porti

### 6.1.2 Display interfeysi

II-model va III-modellar displaylari interfeyslari:



3-rasm. Display interfeysi

I-model displayi interfeysi:



4-rasm. Display interfeysi

### 6.1.3 Batareyalarini joylashtirish

Uskunada kuchlanishi 1,5 Voltga teng bo'lgan 5 dona ishqorli batareya ishlataladi.

Batareyalar to'plami maxsus uyaga joylashtiriladi (5 - rasm).



5-rasm. Batareyalar uyasi

#### **6.1.4 Uskunani o'chirib yoqish tugmasi**

Uskunaning displayiga yaqin va chap yonboshida o'chirib yoqish porti joylashgan. Undagi tugmani "on" va "off" yozuvlari tomonlariga surish orqali uskunani o'chirish va yoqish amalga oshiriladi (6-rasm).



6-rasm. Uskunani o'chirib yoqish porti ko'rinishi

#### **6.2 Tezlik sensorli datchik**

Suv oqimi tezligini o'lchash uchun mo'ljallangan tezlik sensorli datchigi tezlik sensori va unga ulanadigan kabeldan iborat (7, 8-rasmlar).



7-rasm. Tezlik sensorli datchik va kabel kallagi




8-rasm. Tezlik sensori

Suv oqimi tezligini o'lhash vaqtida tezlik sensorli datchikni suv oqimi yo'nalishi bo'ylab barqaror joylashishi uchun uning ortki qismida maxsus dum nazarda tutilgan (9-rasm).



9-rasm. Tezlik sensorli datchikning dum qismi

Chuqur bo'lgan suv ob'ektlarida suv oqimi tezligini o'lchagichni suv oqimi ichiga kerakli chuqurlikka tushishi va barqaror joylashishi uchun o'lchagichga yuk osiladi. Buning uchun unda maxsus . yuk osish ilgak va halqalari ko'zda tutilgan (10-rasm).



10-rasm. Yuk osish ilgak va halqalari

## VII. Menyu, klaviatura va parametrlarni sozlash

### 7.1 Suv oqimi tezligini o'lchagich asbob tugmalarining tavsiflari

(bitta tugma bir necha maqsad uchun ishlataladi)

1. **EXIT:** sozlamalardan chiqish va parametr sozlamalari holatining ish interfeysiiga qaytish uchun 6 soniya davomida uzluksiz bosib turing.

- 2. +: Pageup yoki +1** tugmasi. II-model asosiy interfeysida bu tugmani uzoq bosib turish asosiy parametrlarni o'zgartirish interfeysini ochadi.
- 3. -: Pagedown yoki -1** tugmasi.
- 4. SET tugmasi:** Saqlash: parametr sozlamasi yakunlangandan so'ng kursorni olib tashlash uchun shu tugma bosiladi. Natijada parametrlar yakunlanadi va saqlanadi.
- 5. Sozlash/Almashtirish:** parametrlarni sozlash holatida parametrni sozlash/o'zgartirish bo'limiga kirish uchun shu tugma bosiladi. So'ngra undan almashtirish vazifasini bajarish uchun foydalanish mumkin. Tugmani 6 soniya davomida uzlusiz bosib turilsa, parol interfeysi ochiladi.

### **Parol o'rnatish (muhandislik rejimida)**

Uskunada maqom va parametrlar o'zgartirilganda parol ham o'rnatiladi.

Parol 00000~99999 raqamlari orasidagi besh xonali ixtiyoriy sondan iborat, birlamchi parol: 00000. Ish holatida "set" tugmasi 6 soniyadan ortiq uzlusiz bosing, parolni o'zgartirish ekranida "password 000000" yozushi paydo bo'ladi, "set" tugmasi takroran bosilsa, parolning birinchi raqami oq chiziq bilan belgilanadi. So'ngra parolni o'zgartirish uchun "+/-" tugmalaridan foydalaniladi. Oq chiziqni keyingi raqamga o'tkazish uchun "set" tugmasini yana qayta bosiladi. Bu jarayon 5 marotaba takrorlanadi va parol o'rnatilib bo'lingach, parametrlarni sozlash holatiga qaytish uchun yana "set" tugmasi bosiladi.

### **Parametrlarni sozlash va o'zgartirish**

Qurilma sozlashlar holatiga o'tkazilganidan keyin, ekrandan o'zgartirilishi lozim bo'lgan parametr tanlanadi. Tanlangan bo'limga kirish uchun "set" tugmasi bosiladi. Qo'shish yoki ayirish hamda boshqa parametr sahifasiga o'tish uchun "+/-" dan foydalaniladi.

O'zgartirish kerak bo'lmagan parametr dan boshqasiga o'tib ketish uchun "EXIT" tugmasidan foydalaniladi.

### **O'Ihash vaqtini o'zgartirish, masalan:**

Sozlashlar bo'limiga kirib, sahifani yuqoriga va pastga tushirish uchun "+/-" tugmasidan foydalaniladi va o'Ihash vaqt bo'limi topiladi. "set" tugmasini bosilsa vaqt ko'rsatkichi ostida oq chiziq paydo bo'ladi. Bu sharoitda parametrni o'zgartirish uchun "+/-" tugmasidan foydalaniladi.

Ish yakunlagach, kursorni olib tashlash uchun yana bir bor "set" tugmasi bosiladi, shunda parametrning yangi sozlamasi o'sha zahotiyoy saqlanadi. Barcha parametrlar sozlab bo'linganidan so'ng, "EXIT" tugmasini 6 soniya davomida uzlusiz bosib turilsa dastur odatiy o'Ihash holatiga qaytadi (agar biror bir amal bajarilmasa, dastur avtomatik ravishda odatiy o'Ihash holatiga qaytadi).

Sahifa	II,III - model menyusi	Sozlama / birlik	I - model menyusi	Sozlama / birlik
Foya-lanuvchi interfeysi	Kalibrlash	0 = tozalash, 1 = kalibrlash	Kalibrlash	0 = tozalash, 1 = kalibrlash
	Sath	0~20,000 m		
	O'Ihash balandligi	0~20,000 m		
	Tub kengligi	0~20,000 m		
	Yon devor	0~10,000		
	Chetki masofa	0~10,000 m		
	Dempfirlanish	0~60		
	Oqim o'Ichov birligi	0=m <sup>3</sup> /s;1=m <sup>3</sup> /soat		
	Tezlik raqami	(0~3)=0~0,000)		
	Vaqt	1 (10s)	Vaqt	1 (10s)
	Oraliq	1 (10s)	Oraliq	1 (10s)
	Qiymat raqami	0~999	Qayta sozlash	0=off (o'chirish),

Sahifa	II,III - model menyusi	Sozlama / birlik	I - model menyusi	Sozlama / birlik
				1=on (yoqish)
Qayd		0~999		
Avtomatik o'chirish		0=off (o'chirish), 1=on (yoqish)	Avtomatik o'chirish	0=off (o'chirish), 1=on (yoqish)
Ekranni yorituvchi chiroq		0=off (o'chirish), 1=on (yoqish)	Ekranni yorituvchi chiroq	0=off (o'chirish), 1=on (yoqish)

**Eslatma: "on" (yoqish) funksiyani yoqilishini, "off" (o'chirish) esa funksiyani o'chirilishini anglatadi.**

## 7.2. Foydalanish menyusi va parametrlar to'g'risida ma'lumotlar


**Flow Zero (kalibrlash):** ushbu parametr nol kalibrlash funksiyasi hisoblanadi. Agar noldan siljish mavjud bo'lsa, marhamat qilib ushbu parametrda foydalanishingiz mumkin. Mazkur menu avtomatik ravishda 60 sekundga kalibrlanadi;

**Level adjust (sath chuqurligi):** II -model – bu qo'lda kiritiladigan suyuqlik sathi chuqurligi qiymati. III -model suyuqlik chuqurligini sozlash;

**Flow height (o'lchan balandligi):** tezlik sensoridan kanal tubigacha bo'lgan balandlik (zarur sozlama);

**Bottom width (tub kengligi):** kanal tubining kengligi (zarur sozlama);

**Slope grade (yon devor qiyaligi):** yon devor koeffitsienti bo'lib, trapesiyasimon yon devor tomonlarining nisbatini anglatadi ( $\alpha=B/m$ ). To'rtburchak kanal uchun "0" teng.



11-rasm. Ko'ndalang kesimi trapesiya bo'lgan kanal qirqimi

**Sens margin (chetki masofa):** tezlik sensoridan kanal yonigacha bo'lgan masofa. (zarur sozlama);

**Damping (oqim sakrashini filtrlash koeffitsienti):** O'Ichovlarni filtrlashning uzoq vaqt oqim tasviri hamda signal chiqishining barqarorligini yaxshilashga xizmat qiladi. O'Ichovlarni filtrlashning qisqa vaqt tezkor kerakli tezlikni namoyish etadi.

**Diqqat: Standart 15 kiritiladi.**

**Flow unit (suv sarfi o'Ichamlari):** m<sup>3</sup>/s va m<sup>3</sup>/soatlarda ifodalanadi;

**Velo decimal (tezlik raqami):** tezlik natijasini o'nliklar shaklda o'zgartish;

**Running time (ma'lumot olish vaqtি):** tezlik sensori muayyan muddat mobaynida o'rtacha ma'lumotlarni displayga yuboradi. "0" sozlamasi o'Ichashning nazorat vaqtini qo'lda kiritish kerakligini anglatadi (uzoq muddatli o'Ichash davri tezlik tasviri hamda signal chiqishining barqarorligini yaxshilashga xizmat qiladi. U o'Ichash uchun pulsatsiyalanuvchi oqim maydonidan foydalanadi. Qisqa muddatli o'Ichash davri oniy tezlikni o'Ichashda kerakli tezlikni tezkor qo'llanilishini anglatadi);

*Interval: ikkala o'Ichash o'rtaсидаги interval 0 ~900s;*

**Records№ (o'Ichovlar soni):** Ushbu parametr orqali foydalanuvchi o'Ichovlar raqamini kiritishi mumkin. Shuningdek, elektron o'Ichagich avtomatik tarzda avvalgi o'Ichov raqamiga 1 qo'shib boraveradi;

**Records ID (saqlangan o'Ichovlar natijalari);** Ushbu parametr orqali avvalgi o'Ichovlar natiajalarini ko'rish mumkin.

**Auto Off (avtomatik o'chirish);** Elektron hisoblagich avtomatik ravishda 60s da hech qanday amal bajarilmasa o'chadi. O qiymat berilganda, qurilma uzluksiz ishslash rejimida bo'ladi;

**Light On (ekran yorug'ligi):**

0 - ish jarayonida xatolik vujudga kelgan taqdirda ekranni yorituvchi chiroq avtomatik tarzda o'chadi.

1 – chiroq yonib turaveradi.

### 7.3 Muhandislik rejmi menyusi

Sahifa	II/III-model menyusi	Sozlama / Birlik	II/III-model menyusi	Sozlama / Birlik
Muxan-dislik inter-feysi	Konversiya koeffitsient	Zavoddagi kalibrlash	Konversiya koeffitsient	Haqiqiy qiymat
	Qurilma koeffitsient	Zavoddagi kalibrash	Nol kalibrash	Nol nuqtani qo'lda o'rnatish
	Model	Zavoddagi sozlamalar	Tezlik chegarasi	Kichik tezlik chegarasi
	Sath diapazoni	Zavoddagi sozlamalar	Tezlik raqami	0~3
	II/III-model menyusi	Sozlama/Birlik	II/III-model menyusi	Sozlama/Birlik
	II/III-model menyusi	Sozlama/Birlik	II/III-model menyusi	Sozlama/Birlik
	Maksimal kuchlanish	0~6.000 Volt	Uzatish manzili	1~255
	Minimal kuchlanish	0~1.600 Vo	Uzatish tezligi	1200~9600
	Chiziqli ogohlantirish	0 yoki 1	Filtrash koefitsienti	10~200
	Tezlik qiymati	1~5	Chiziqli tuzatish	0=off (o'chirish) 1=on (yoqish)
	Tezlik kalibri	1~5	Tezlik qiymati	Zavoddagi sozlamalar
	Sensor koefitsienti	0~6,0000	Sensor koefitsienti	Haqiqiy qiymat
	Oqim koefitsienti	0~6,0000	-	-
	Til	0 – xitoy tili 1- ingliz tili	Til	0 – xitoy tili 1- ingliz tili
	Parol	0000~9999	Parol	0000~9999

### **7.3.1 Muhandislik interfeysi va parametrlarni kiritish**

**Konversiya koeffitsienti:** ushbu parametr displeyni o'lhash sxemasini unifikatsiya qilish uchun display ishlab chiqaruvchisining maxsus koeffitsienti sanaladi. Har bir displayning muvofiqligini ta'minlaydi (qat'iy parametr);

**Qurilma koeffitsienti:** Bu zaxira koeffitsient bo'lib, u mahsulotning tezlik bilan o'zaro aloqasini ko'rsatib beradi;

**Model:** faqat zavod uchun qat'iy parametr;

**Sath diapazoni:** III-model suv sathini o'lhash funksiyasiga ega. Sath o'lchagich diapazoni;

**Maksimal kuchlanish:** III-modeldagi maksimal kuchlanishni sozlash;

**Minimal kuchlanish:** III-modeldagi minimal kuchlanishni sozlash;

**Chiziqli ogohlantirish:** Chiziqli ogohlantirish funksiyasining nazorat qilish. 0-o'chirish, 1-yoqish;

**Tezlik qiymati 1:** Chiziqli tuzatishning birinchi nuqtada o'lchangان tezligining qiymati;

**Tezlik kalibri 1:** Chiziqli tuzatishning birinchi nuqtada to'g'irlangan tezligining qiymati;

**Tezlik qiymati 8:** Chiziqli tuzatishning birinchi nuqtada o'lchangان tezligining qiymati;

**Tezlik kalibri 8:** Chiziqli tuzatishning birinchi nuqtada to'g'irlangan tezligining qiymati;

**Sensor koeffitsienti:** ushbu parametr tezlik sensorini kalibrlash koeffitsienti hisoblanadi. Har bir sensor amaliy kalibrlash natijasida hosil bo'lgan yagona kalibrlash koeffitsientiga ega va ular mahsulot sertifikatida qayd etib o'tilgan. U mahsulot yetkazib berilishidan oldin ichiga joylab qo'yilgan (qat'iy parametr);

**Til:** 0 – xitoy tili; 1 – ingliz tili (II-model);

**Parol:** bu parametrga o'zgartirish kiritish mumkin, zavod tomonidan o'rnatilgan birlamchi parol: 0000;

**Tezlik chegarasi:** past tezlik chegarasini ko'rsatadi, o'lchov birligi m/s (I-model);

**Uzatish manzili:** Xabarni yuborish diapazoni: 1~255, birlamchi: 1 (I-model);

**Uzatish tezligi:** 1200 ~ 9600 bit/s ixtiyoriy hisoblanadi. Birlamchi: 9600.

Ushbu menujihozni RS485 qurilmasi bilan muvofiqlashtiradi (I-model).

*Eslatma: II/III-modellarning manzil modeli: 1, ma'lumotlarni uzatishning birlamchi tezligi 9600 va uni sozlab bo'lmaydi.*

### 7.3.2. Tezlikni chiziqsiz sozlash funksiyasi bo'yicha ko'rsatmalar

Tezlikni chiziqsiz sozlash funksiyasi asosan past tezlik (0,5m/s) ostida chiziqli tuzatishni joriy etadi. U sakkizta tuzatish bo'linmasidan tarkib topgan, jumladan sakkizta tezlik nuqtasi hamda sakkizta tuzatish koeffitsientidan iborat.

Chiziqsiz tuzatish koeffitsienti sensorning dastlabki kalibrash koeffitsientiga asosan o'zgartirilishi lozim.

Shuning uchun, chiziqsiz tuzatish funksiyasini o'chirilib, sensor koeffitsienti belgilanadi, keyin kerakli funksiya yoqiladi.

Sensorning chiziqsiz bo'limiga, tezlikni o'lhash va sozlamalarga kiritilgan tuzatishlarga asosaan uskuna kalibrlanadi. Agar sozlamalar maqbul holatda bo'lsa, kalibrashning xojat bo'lmaydi.

Misol: Dastlabki tezlik – bu sensorning koeffitsientiga binoan hisoblab chiqilgan tezlik. Tuzatish tezligi esa bu chiziqsiz tuzatilgan tezlik.

*Eslatma: Tezlik o'rnatilayotganda, quyidagi munosabatga amal qilinishi shart:*

**Tezlik 1 > Tezlik 2 > Tezlik 3>Tezlik 4>Tezlik 5.....>Tezlik 8**

## VIII. Uskunadan foydalanish

### 8.1 Suv oqimi tezligini o'Ichash

Uskuna zamonaviy o'Ichov vositalaridan bo'lib, oquvchi suyuqliklar oqimi tezligini o'Ichashda qo'llaniladi. Undan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish juda oson.

Uskunani ishlatalish uchun sensor va elektron hisoblagichni o'zaro ulanadi, display yoqiladi va tezlikni o'Ichash sensorini kanalning suv oqimi tezligi o'chanayotgan nuqtasiga tushiriladi.



12-rasm. Suv yetkazib beruvchi kanalda suv oqimi tezligini o'Ichash

### 8.2 Suv oqimi suv sarfini (miqdorini) o'Ichash

Suv oqimi miqdorini o'Ichash uchun kanalning o'Ichash parametrlarini kiritish talab etiladi: tezlikning o'Ichashning chegarasi, tezlikni o'Ichash balandligi, yon nishablik koeffitsienti, kanal tubi kengligi, suv chuqurligi (suv sathini sozlash, III-modelda suv sathi chuqurlik sensori yordamida avtomatik tarzda aniqlanadi).

*Eslatma: Suv oqimi tezligini o'Ichash usuli bir nuqtali va ko'p nuqtali usullarni o'z ichiga oladi.*

*Bir nuqtali usulda o'Ichash kanal suvi chuqurligining 0,6 barobar qismi va kanal kengligining 0,5 barobar kattaligi tanlanadi.*

*Ko'p nuqtali usulda esa suv oqimi tezligini o'Ichash uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi.*

### **8.2.1 Suv oqimi tezligini suv oqimi chuqurligi bo'yicha taqsimlanishi**

Suv oqimining tezligi suv oqimining chuqurligi (vertikali) bo'yicha turli qiymatlarga ega.

Suv oqimi chuqurligi bo'yicha suv oqimi tezligini vertikal taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Suv oqimi chuqurligi bo'yicha tezlikni vertikal taqsimlanishi

Suv oqimi kengligi (m)	Vertikal raqam
$0 < x < 0,5$	3 - 4
$0,5 < x < 1$	4 - 5
$1 < x < < 3$	5 - 8
$3 < x < < 5$	8 - 10
$5 < x < 10$	10 - 20
$> 10$	$> 20$

### **8.2.2 Oqim chuqurligini o'lhash qiymatlari**

Oqim diapazonida yo'nalish chuqurligini o'lhash uchun tavsiya etiladigan qiymatlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Oqim chuqurligini o'lhash qiymatlari

Chuqurlik, m	Nuqtalar soni
$< 1$	3 - 4
1 - 3	4 - 6
4 - 7	5 - 8
$> 7$	6 - 10

### 8.2.3 Suv oqimi o'rtacha tezligini aniqlashning ko'p nuqtali usuli

Suv oqimi o'rtacha tezligini aniqlashning ko'p nuqtali usuli uchun tavsiya etilgan namunaviy tenglamalar 3-jadvalda keltirilgan.


3-jadval. Namunaviy tenglamalar ko'rinishlari

Rejim	O'lchash nuqtasi o'rni	O'rtacha tezlik
1 nuqtali	0,6·h	$V_{o'rt} = V \cdot 0,6$
2 nuqtali	0,2/0,8·h	$V_{o'rt} = (V_{0,2} + V_{0,8})/2$
3 nuqtali	0,2/0,8/0,6·h	$V_{o'rt} = 0,25 \cdot (V_{0,2} + V_{0,6} + V_{0,8})$
4 nuqtali	0,2/0,4/0,7/0,9·h	$V_{o'rt} = 0,25 \cdot (V_{0,2} + V_{0,4} + V_{0,7} + V_{0,9})$
5 nuqtali	Suv yuzasiga yaqin 0,2/0,4/0,7/0,9·h (daryo o'zani)	$V_{o'rt} = 0,1 \cdot (V_{yuza} + V_{0,2} + V_{0,6} + V_{0,8} + V_{tub})$
6 nuqtali	Suv yuzasiga yaqin 0,2/0,4/0,7/0,9·h (daryo o'zani)	$V_{o'rt} = 0,1 \cdot (V_{yuza} + V_{0,2} + V_{0,4} + V_{0,7} + V_{0,9} + V_{tub})$

**Eslatma: yuzaga yaqin bo'lgan hollarda sensor taxminan 10 sm suv ichida bo'llishi lozim**


### 8.2.4 Suv oqimi miqdorini (suv sarfini) hisoblash

#### 8.2.4.1 O'lchov nuqtalari o'rtasidagi chiziqli suv sarfini hisoblash



13-rasm. O'lchov nuqtalari o'rtasidagi chiziqdagi suv sarfini hisoblash sxemasi

### 8.2.4.2 Suv sarfini chiziqli hisoblash



$$q_3 = v_{m3} \times \left[ \frac{(b_3 - b_2) + (b_2 - b_1)}{2} \right] \times h_3$$

14-rasm. Suv sarfini chiziqli hisoblash sxemasi

### 8.2.4.3 Yon devor oqimini hisoblash

$$q_R = [h_1 \times \frac{(b_2 - b_1)}{2}] \times k_R \times v_{m2}$$

13-rasm. Suv sarfini chiziqli hisoblash sxemasi

4-jadval. Kanallar qirg'oqlarining koeffitsientlari

Kanal turi	Qirg'oq koeffitsienti
Beton va temir	0,8-0,9
Er o'zanli (o'zgaruvchan va suv o'tlari kam)	0,5-0,6

## 8.3 Suv oqimi tezligini o'lchanadigan qo'yiladigan talablar

1. Suv oqimi tezligini o'lchanadigan nuqta kanal yoki daryoning tekis joyidan tanlanadi. Bunda kanalning to'g'ri qismi yetarli darajada uzunlikka ega bo'lishi lozim. Kanal o'zani to'g'ri qismining uzunligi 1) suv o'lchanadigan nuqtadan yuqorida kanal tubining kengligidan kamida 10-15 barobar katta, 2) suv o'lchanadigan nuqtadan pastda kanal tubining kengligidan kamida 2-5 barobar katta bo'lishi lozim.

Bunday uchastkalarda suv oqimi barqaror va bir xil tezlikka ega bo'ladi.

2. Zatvorlar, burilishlar, suv kirish - chiqish nuqtalari va nishabliklar mavjud joylarni tanlash mumkin emas. Bu joylarda o'chanadigan suv oqimi tezligi bir xil bo'lmay, doimo o'zgarib turadi, olinadigan ma'lumotlar haqqoniy bo'lmaydi.
3. Suv oqimi tezligini o'chovchi sensorning joylashishi: suv oqimi tezligini o'chash sensorining uchini oqimning yuqori qismiga qaratilib, tezlikni o'chash sensorini oqim yo'naliishiga parallel joylashtiriladi. Sensor barqaror ishlay boshlaguncha kutib turib, keyin ma'lumot oling.
4. Birlamchi shovqinning signalga xalaqit berishidan ehtiyoj bo'ling hamda elektrodning oksidli plyonkasi shovqinlarini bartaraf etish choralarini ko'ring.

#### **8.4 Ishlatish rejimlari**

Suv oqimi tezligini o'chash uskunasining ikkita ish rejimi mavjud:

“Time” (“Vaqt”) rejimida 0 ni tanlash – bu qo'lda boshqariladigan uzluksiz ishlash rejimi.

“Vaqt” rejimi tanlanib, davriylikni o'chash uchun “Interval” (“Interval”) rejimi ham tanlansa, u holda bu uzulishli davr rejimi hisoblanadi.

Uzluksiz rejim – bu vaqt intervali qo'lda boshqariladigan rejim. Suv oqimi displayi ishlab turgan vaqtda ish vaqtı istalgan paytda to'xtashi mumkin. Shundan so'ng, keyingi o'chash davri qo'lda kiritiladi.

Agar biror bir amal bajarilmasa, ekranni yorituvchi chiroq 60 soniyadan so'ng avtomatik tarzda o'chadi.

Chiroqni yoqish uchun klaviaturadagi istalgan tugmani bosing; agar biror bir amal bajarilmasa, quvvatni tejash rejimida suv oqimi displayi 30 soniyadan keyin avtomatik tarzda o'chadi.

Quvvatni tejash rejimisiz uskuna batareya tamom bo'lguniga qadar ishlashda davom etaveradi (avtomatik rejimni o'chirish uchun 0 ni tanlang).

### 8.5 Nol kalibrlash (avtomatik tarzda nolga sozlash)

**Nol kalibrlash:** parametrlarni sozlash rejimiga kirish uchun (+) ni uzluksiz uzoq bosib turing va "Nol kalibrlash" bo'limini toping, so'ngra, avtomatik tarzda nolga sozlash uchun "Set" tugmasini bosing.

Shundan so'ng, "00" ostida oq chiziq paydo bo'ladi, "+" ni bosing va "00"ni "01"ga o'zgartirib, yana "set" tugmasini bosing.

Avtomatik tarzda nolga sozlash yoqiladi.


Avtomatik tarzda nolga sozlamasi 60 soniyani tashkil qiladi.

Ekranda 60 soniyadan 0 gacha bo'lgan vaqt namoyish etib turiladi. Shu tariqa avtomatik tarzda nolga sozlash yakunlanadi.

Zarur bo'lganda nol kalibrlashni amalga oshirish va tekshirish tavsiya qilinadi.

Muhit turg'un holatda ekanligiga hamda elektrodn o'rabi turganiga ishonch hosil qiling. Idish elektr o'tkazmaydigan materialdan bo'lishi lozim.

Quyidagi 15-rasm misol tariqasida keltirib o'tilgan:



15-rasm. Elektrodn tekshirish sxemasi

*Eslatma: foydalanish bo'yicha ko'rsatma:*

*1. Elektrod muhitning markazida joylashgan bo'lishi lozim. Metaldan yasalgan qismi muhitga tegib turishi kerak.*

*2. Nolga kalibrlash vaqtida muhitni ham, sensorni ham turg'un holda ushlab turing.*

## **8.6 Avval saqlangan ma'lumotlarni qayd etish va olish**

II/III-model displayi 1000 tagacha avvalgi ma'lumotlarini o'zida qayd etishi mumkin.

### **8.6.1 Ma'lumotlarni qayd etish va saqlash**

Qurilma ichki xotirasi raqamlarni avtomatik tarzda qayd etadi. "Sozlamalar" bo'limida dastlabki qiymatni o'rnatish mumkin va navbatdagi har bir o'lhashga avtomatik tarzda 1 qo'shilib boradi hamda 1000 ta elementdan so'ng joriy qiymatni avvalgi eski qiymatning ustiga yozib boraveradi.

### **8.6.2 Sana bo'yicha so'rov berish**

Displayni yoqing va odatiy o'lhash holatini saqlab turing, sahifani tepaga ko'tarish yoki pastga tushirish uchun "+" yoki "-" ni bosing, sana bo'yicha so'rov degan joyni toping va qayd raqamini tanlash uchun "set" tugmasini bosing, so'ng "Exit" tugmasini bosing.


Dastur sana bo'yicha so'rov berish oynasini ochadi.

Avval o'lchangan barcha ma'lumotlarni olish uchun "+" yoki "-" tugmasidan foydalanish mumkin. Har bir sananing o'z raqami mavjud, shuning uchun sanani tartib raqami bo'yicha tekshirish mumkin.

Agar biror bir elementni topishni istasangiz, raqamni sanani sozlash menyusiga kriting va parametrlarni sozlash holatidan chiqing, shunda siz istagan element namoyish etiladi.

Ishni yakunlagach “EXIT” tugmasini bosib, sana bo'yicha so'rov berish ekranidan chiqib keting va odatiy ish rejimi holatiga qayting.

### **8.6.2 Sana bo'yicha so'rov berish interfeysi**




16-rasm. Sana bo'yicha so'rov berish interfeysining ko'rinishi

### **IX. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha eslatma**

1. Suv oqimi tezligini o'lchagichdan uzoq muddat foydalanilmagan holatlarda, ishlatishdan avval elektrodlarni toza va nam mato bilan artish va ularni 3-5 soatga suvga solib qo'yish tavsiya qilinadi.
2. Suv oqimi tezligini o'lchagich sensorini toza saqlash, loy va yog' tushishidan asrash lozim.
3. Suv oqimi tezligini elektromagnit o'lchagich displayi doimo toza va quruq holatda saqlanishi shart.
4. Suv oqimi tezligini o'lchagich batareyalarini almashtirib turish tavsiya qilinadi. Batareya uzoq vaqt foydalanilmagan holatlarda ularni uyasidan chiqarib qo'yilishi lozim.

## X. Nosozliklarni bartaraf etish


<b>Nº</b>	<b>Ogohlantiruvchi belgilar</b>	<b>Ma'lumot</b>	<b>Yuzaga kelish sababi va bartaraf etish yo'li</b>
1		Quvvat kamligi to'g'risida ogohlantirish	Batareyalarni quvvati qolmagan. Batareyalarni zaryadlash kerak
2		Magnitlanish to'g'risida ogohlantirish	Magnitlanish chizig'i bo'shashgan yoki magnitlanish chizig'ida xatolik yuzaga kelgan. Zavod sozlamalariga qaytish
3		Sensordagi xatolik to'g'risida ogohlantirish	Tezlikni o'lchash balandligi sozlamalari mos emas va suv sathi sensori buzilgan. Zavod sozlamalariga qaytish

## XI. Uskunaning tarkibiga kiruvchi elementlar to‘plami

<b>Nº</b>	<b>Elementlar</b>	<b>Soni</b>
1	Elektron hisoblagich	1 dona
2	Tezlik sensori	1 dona
3	Sensor dumi	1 dona
4	O‘Ichov metri (ruletka 5,0 metr)	1 dona
5	O‘Ichov shtangasi	6 metr (0,5 metr - 12 dona)
6	Metal tross	1 dona (uzunligi 3 m)
7	Yuk uchun ilgaklar	2 dona
8	Yuk o‘rnatish moslamasi	1 dona
9	Mahkamlovchi olti qirrali kalitlar	3 dona (turli o‘lchamda)

# **TOMCHI mobil ilovasi**

## **TOMCHI - suv tejashga yordamchi**



**mobil ilovasini  
yuklab oling**



<https://t.me/tomchikanali>

<https://t.me/tomchiguruhi>

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi

Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi

O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi 2-bosqich

### **Suv sarfini o'lchash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish**

(MGG/KL-DCB rusumli elektromagnit suv sarfini o'lchash vositasidan foydalanish  
misolida qo'llanma)

Fozilov I.I., Mamatov S.A.,

Axronqulov J.

E-mail: [info@nwrmp.uz](mailto:info@nwrmp.uz), [s.mamatov@nwrmp.uz](mailto:s.mamatov@nwrmp.uz)

